O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/2025.27.12Fil.15.03. RAQAMLI ILMIY KENGASH

XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI

AZATOVA GULISTON NORIMONOVNA

XORAZM BOLALAR FOLKLORI LEKSIKASINING ANTROPOTSENTRIK TAVSIFI

10.00.01 – O‘zbek tili

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent-2026

UO‘K: 811.512.133'37(575.171):398.8

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on Philological Sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Azatova Guliston Norimonovna
Xorazm bolalar folklori leksikasining antropotsentrik tavsifi 3

Azatova Gulistan Norimonovna
Anthropocentric description of the lexicon of Khorezm children’s folklore 25

Азатова Гулистан Норимоновна
Антропоцентрическая характеристика лексики
детского фольклора Хорезма 47

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 51

O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/2025.27.12Fil.15.03. RAQAMLI ILMIY KENGASH

XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI

AZATOVA GULISTON NORIMONOVNA

XORAZM BOLALAR FOLKLORI LEKSIKASINING ANTROPOTSENTRIK TAVSIFI

10.00.01 – O‘zbek tili

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent-2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Fil5451 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Xorazm Ma’mun akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti veb-sahifasining (www.tai.uz) hamda “ZiyoNet” axborot-ta’lim portali (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Muqimova Zohida Rasulovna** filologiya fanlari doktori
Rasmiy opponentlar:	**O‘razboyev Abdulla Durdiboyevich** filologiya fanlari doktori, professor
	Saparniyazova Muyassar filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.27.12.Fil.15.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “13” noyabr soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz tor ko‘chasi, 5-uy. Tel.: (99871) 233-36-50; faks: (99871) 233-71-44; e-mail: uztafi@academy.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (81 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent shahar, Ziyolilar ko‘chasi, 13-uy. Tel.: (99871) 262-74-58

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “9” noyabrda tarqatildi.
(2026-yil “9” noyabrdagi 16 raqamli reyestr bayonnomasi).

N.M. Mahmudov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, f.f.d., professor

M.B. Saydaliyeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD)

Y.R. Odilov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi o‘rinbosari, f.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligi va folklorshunosligida xalq og‘zaki hamda yozma nutqini inson omili bilan uzviy bog‘liq holda, ya’ni antropotsentrik yondashuvlar asosida tadqiq etish zamonaviy ilmiy paradigmaning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bolalar folklori insonning ilk yoshidanoq dunyoqarashini shakllantirish, uning emotsional-ruhiy, estetik va milliy kamolotini ta’minlashda beqiyos o‘rin tutadi. Dunyo ilm-fanida xalq og‘zaki ijodi namunalaridagi lisoniy-poetik xususiyatlar, so‘zning sehrli qudrati, mifopoetik va antropomorf tasavvurlar etnolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv tilshunoslik hamda psixolingvistika fanlari tutashgan nuqtada faol o‘rganilmoqda.

Dunyo tilshunosligida folklor leksikasi va dialektal qatlamlarni antropotsentrik tamoyillar asosida o‘rganish, eng avvalo, xalq og‘zaki ijodi matnlarida lisoniy shaxs, olamning lisoniy manzarasini ifodalash usullarini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, hududiy folklor matnlarida saqlanib qolgan arxaik, tarixiy va lahjaviy birliklarning leksik-semantik hamda lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berish, ushbu birliklarda muhrlangan etnomadaniy kodlar, lakuna va realiyalarni xalqning milliy-madaniy tafakkuri bilan uzviylikda tadqiq etish alohida ilmiy zarurat hisoblanadi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, o‘zbek folklori namunalarini antropotsentrik yo‘nalishlarda tadqiq qilish orqali milliy mentalitet va til taraqqiyoti qonuniyatlarini aniqlashga e’tibor kuchaydi. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “Ona tilimiz – milliy ma’naviyatimizning bitmas-tuganmas bulog‘i bo‘lib, unga munosib hurmat va ehtirom ko‘rsatish barchamizning muqaddas insoniy burchimizdir”[1]. Shu jihatdan olib qaraganda, Xorazm etnofolklor areali o‘zining ko‘hna lisoniy qatlamlari, barqaror dialektal hamda o‘ziga xos boy milliy-madaniy xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi. Xorazm bolalar folklori leksikasi nafaqat til faktlari, balki hududiy etnosning tarixiy-kognitiv xotirasini tashuvchi muhim manba sanaladi. Xorazm bolalar folklori leksikasini inson omili hamda lingvomadaniy aspektlar bilan bog‘liq holda monografik planda tadqiq etish o‘zbek tilshunosligida o‘z yechimini kutayotgan dolzarb vazifalardandir. Ushbu lingvofolkloristik va dialektal vazifalarni amalga oshirish o‘zbek leksikografiyasi, kognitiv tilshunosligi va etnolingvistikasi nazariy-amaliy bazasini yangi faktik materiallar hamda ilmiy xulosalar bilan boyitishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[2], 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 30 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. – 2019-yil, 21-oktabr.

[2] PF-5850-son. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 22.10.2019-y., 06/19/5850/3941-son.

to‘g‘risida”gi farmonlari[3], 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[4], O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-fevraldagi 59-son “Boysun bahori xalqaro folklor festivalini tashkil etish va o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[5], 2023-yil 25-dekabrdagi PQ-404-son “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari[6] hamda ushbu sohalarga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbek folklori, xususan, bolalar xalq og‘zaki ijodi durdonalarining lingvistik, adabiy-estetik hamda etnografik xususiyatlarini tadqiq etish masalasi ko‘plab olimlar e’tiborida bo‘lib kelgan. Bolalar folklori bilan bog‘liq dastlabki tarixiy ma’lumotlar, xususan, qadimiy o‘yin atamalari Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asari sahifalarida uchraydi[7].

V.P.Nalivkin, N.Budzinskiy, Y.M.Peshcherova kabi bir qator rus sharqshunoslari o‘zbek bolalar folklorini o‘rganish yo‘nalishida salmoqli izlanishlarni boshlab berdilar[8].

Folklorshunoslik tarixida klassik meros sifatida Hodi Zarifning bolalar folklori va xalq ijodiga oid kuzatishlari[9] alohida ahamiyatga molik. O‘zbek bolalar folklorining janriy tabiati, poetikasi va estetik xususiyatlarini tadqiq etishda O.Safarovning[10] fundamental tadqiqotlari soha rivojiga katta hissa qo‘shgan.

---

[3] PF-60-son. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son.

[4] PQ-2995-son. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 25.05.2017-y., 07/17/2995/0023-son.

[5] VMQ-59-son. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. “Boysun bahori xalqaro folklor festivalini tashkil etish va o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida” // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 08.02.2022-y., 09/22/59/0110-son.

[6] PQ-404-son. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2023-y., 07/23/404/0971-son

[7] Маҳмуд Кошғарий. Девону луғатит турк. 3 жилд. – Тошкент: Фан, 1963. – Б. 376.

[8] Наливкин В.П., Наливкина М. Очерк быта женщины оседлого населения Ферганы. – Казань, 1888; Будзинский Н. Народная поэзия Ташкентских сартов. Средняя Азия, 1910, кн. IX-X; Боровков А.К. Игры узбекских детей // Сборник научного кружка при Востфаке САГУ. Вып. 1. – Ташкент, 1928; Пещерова Е.М. Некоторые игры среди оседлого населения Туркестана // Бюллетень САГУ. Вып. II. – Ташкент, 1925. ва бошқалар.

[9] Ҳоди Зариф. Ўзбек фольклори. I китоб. – Тошкент, 1939. – Б. 293-294.

[10] Сафаров О. Болаларни эркаловчи ўзбек халқ қўшиқлари. – Тошкент: Фан, 1983. – 88 б.

Shuningdek, G‘.Jahongirov[11] va Sh.Galiyevning[12] risolalarida bolalar folklori namunalari tizimlashtirilib, ularning tarbiyaviy hamda badiiy xususiyatlari ochib berilgan.

Hududiy folklor va shevaga xos xususiyatlarni o‘rganish borasida esa M.Jumaniyozovaning “Xorazm xalq qo‘shiqlari leksikasi” nomli dissertatsiyasida voha qo‘shiqlarining leksik qatlami tahlil qilingan[13] bo‘lsa, H.Ro‘zmetovning “Xorazm bolalar folklori: lokal xususiyatlari, tasnifi va badiiyati” nomli ilmiy ishida Xorazm bolalar folklorining lokal xususiyatlari va tasnifiga e’tibor qaratilgan[14]. Shuningdek, S.Avezovning[15] sanama janri tabiatiga bag‘ishlangan ishlari, N.Safarova[16] hamda Sh.Turg‘unov[17]larning bolalar folklorining o‘ziga xos jihatlarini o‘rgangan tadqiqotlari bu boradagi ilmiy qarashlarni boyitgan.

Tilshunoslik yo‘nalishida esa xalq og‘zaki ijodi asarlarining leksik-semantik hamda sintaktik xususiyatlarini tadqiq etishda X.Abdurahmonov, M.Sadriddinova, B.Soatov, J.Abdullayev, M.Saparniyozova[18] kabi yetakchi tilshunoslarning ilmiy maktablari muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, R.Anorboyev, F.Hayitova, M.Jumaniyozova va M.Yakubbekova[19]larning xalq qo‘shiqlari leksikasi va lingvopoetikasiga bag‘ishlangan doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari tilshunoslikda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Biroq mavjud ilmiy adabiyotlar va dissertatsiyalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, Xorazm bolalar folklori leksikasini inson omilini birinchi o‘ringa qo‘yuvchi antropotsentrik yo‘nalishdagi tadqiqotlar hali shu kungacha amalga oshirilmagan. Mazkur dissertatsiya ishi aynan shu masalani yoritishga qaratilgani bilan dolzarb va ilmiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim (yoki ilmiy) muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Xorazm Ma’mun akademiyasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

---

[11] Жаҳонгиров Ғ. Ўзбек болалар фольклори. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975. – Б. 6.

[12] Галиев Ш. Ўзбек болалар ўйин фольклори. – Тошкент: Ўқитувчи, 1998. – Б. 96.

[13] Жуманиёзова М. Хоразм халқ қўшиқлари лексикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – Б.24.

[14] Рўзметов Ҳ. Хоразм болалар фольклори: локал хусусиятлари, таснифи ва бадийяти: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2005. – 158 б.

[15] Авезов С. Санама жанри табиати ва бадийяти. – Тошкент: Фан, 2008. – 104 б.

[16] Сафарова Н. Ўзбек болалар ўйин фольклори табиати ва бадийяти. – Тошкент, 2006. – 51 б.

[17] Турғунов Ш. Санамаларнинг айрим хусусиятларига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – № 6 – Б. 85-87.

[18] Абдураҳмонов Х. Синтаксические особенности узбекских народных пословиц: Автореф. дисс. ... канд. филол.наук. – Ташкент, 1964. – С. 33.; Садриддинова М. Лексика узбекских пословиц и поговорок: Автореф. дис. …канд. филол. наук. – Ташкент, 1985. – С. 20.; Соатов Б. Жанровая специфика и поэтические особенности узбекских народных пословиц: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1990. – С.20.; Абдуллаев Ж. Ўзбек халқ топишмоқларининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. номзоди дис. автореф. – Тошкент, 1994.; Сапарниязова М. Ўзбек халқ топишмоқларининг синтактик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. номз. … дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – Б.24.

[19] Анорбоев Р. Ўзбек халқ қўшиқларидаги шахссиз гапларнинг баъзи структура хусусиятлари // ТошДПИ илмий асарлари. – Тошкент, 1972. – Б.182-191; Ҳайитова Ф. Никоҳ тўйи қўшиқларининг лисоний талқини: Филол.фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – Б.24; Жуманиёзова М. Хоразм халқ қўшиқлари лексикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – Б.24; Якуббекова М. Ўзбек халқ қўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – Б.50.

Tadqiqotning maqsadi Xorazm bolalar folklori leksikasidagi kognitiv va lingvomadaniy birliklarni aniqlash hamda ularning antropotsentrik xususiyatlarini tadqiq etish orqali mazkur hududiy qatlamning etnomadaniy tabiatini ochib berish, shuningdek, o‘zbek lingvofolkloristikasidagi o‘rnini belgilashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Xorazm bolalar folklori leksikasini tashkil etuvchi birliklarni aniqlash va ularni antropotsentrik tamoyillar asosida tasniflash;

Xorazm bolalar folklori leksikasidagi inson va atrof-muhit konseptlarini kognitiv yondashuvda tahlil etish hamda olamning lisoniy manzarasida tutgan o‘rnini yoritish;

Xorazm bolalar folklori matnlarida qo‘llangan lingvomadaniy birliklarni aniqlash hamda ularda aks etgan etnomadaniy va milliy xususiyatlarni guruhlashtirish;

Xorazm bolalar folklori namunalari leksikasining lisoniy shaxs shakllanishidagi hamda nutqiy muloqotdagi kognitiv-lingvomadaniy xususiyatlarini belgilash.

Tadqiqot obyekti Xorazm bolalar folklori matnlari (allalar, o‘yinlar, erkalamalar, ovutmachoqlar, topishmoqlar, aytimlar, qo‘shiq va boshqalar)dan iborat.

Tadqiqot predmetini Xorazm bolalar folklori matnlarida qo‘llangan leksik birliklarning kognitiv xususiyatlari, olamning lisoniy manzarasida tutgan o‘rni hamda allalar, erkalamalar, ovutmachoqlar, topishmoqlar, aytim kabilar leksikasida aks etgan etnomadaniy birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishini bajarishda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, konseptual, kognitiv-semantik hamda lingvomadaniy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Xorazm bolalar folklori leksikasini tashkil etuvchi birliklar ilk bor antropotsentrik paradigma asosida kognitiv va lingvomadaniy aspektda tizimli ravishda izohlangan;

voha bolalar folklori matnlarida qo‘llangan *anasi, otosi, buvo, momo, og‘ojoni, oyoposi, bavak* kabi qarindoshlik birliklarining kognitiv vazifalari, *gashir (sabzi), sori tulki, isvant, sirg‘a, bilazuk, jin-arvoh* kabi o‘simlik, buyum hamda mifik kuchlarni shaxslantirish usullari, shuningdek, *oylonoyin, tikon girdi, qizg‘anadi, zirlo* kabi ruhiy holat va harakatni ifodalovchi emotsional so‘zlar kognitiv yondashuvda tahlil qilinib, ularning bolalar dunyoqarashi va olamning lisoniy manzarasini shakllantirishdagi o‘rni aniqlangan;

Xorazm bolalar folkloriga xos matnlar leksikasi etnomadaniy tafakkur va lisoniy shaxs shakllanishining muhim vositasi ekanligi asoslangan;

Xorazm bolalar folkloriga xos bo‘lgan *gulvant, po‘ssiq, qorma, oqvosh, dasvarda, dallik, adag‘arva, gurvak, barak, go‘mma, tanasgul, gujum, jigildak, g‘ishsha* kabi etnografik, gastronomik hamda floristik realiyalarning o‘zbek adabiy tili va boshqa hududiy shevalar tizimida intralingvistik lakunalarni yuzaga keltirishi aniqlanib, ularning voha bolalari nutqiy muloqotida va etnolingvistik xotirasida tutgan o‘rni isbotlangan;

Xorazm bolalar folklori leksikasidagi “*gap topmoq”, “Xudodan topmoq”, “tovuqdan tez tora chiqmoq”, “qor atmoq”, “bitina qon varmaslik”, “Go‘rog‘li otin urkizgan”* kabi turg‘un birikmalar va majoziy obrazlarning (*qush, yumurto, jo‘ja – qovun* metaforasi) lingvokonseptual hamda lingvomadaniy xususiyatlari yoritilib, ularning voha xalqining etnomadaniy tafakkuri va lisoniy shaxs shakllanishi bilan uzviy bog‘liqligi izohlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Xorazm bolalar folklori leksikasi, ya’ni alla, erkalamalar, ovutmachoqlar, sanama, topishmoq, ertak va aytim kabilar bo‘yicha jamlangan til materiallari, ularning kognitiv hamda lingvomadaniy tahlillari natijasida chiqarilgan xulosalar zamonaviy o‘zbek tilshunosligi va etnolingvistikasi uchun muhim nazariy-amaliy manba bo‘lib xizmat qilishi asoslangan;

folklor matnlaridan ajratib olingan lingvomadaniy birliklar, etnomadaniy realiyalar, hududiy leksik unsurlar milliy tillar va dialektal birliklarning izohli, etnolingvistik hamda lingvomadaniy lug‘atlarini tuzishda qimmatli material bo‘lib xizmat qilishi isbotlangan;

tadqiqot davomida aniqlangan kognitiv modellar va lingvomadaniy birliklar oliy ta’lim muassasalarining filologiya mutaxassisliklari uchun darsliklar, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar hamda o‘quv dasturlarini yaratishda amaliy yordam berishi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy muammoning aniq qo‘yilganligi, tadqiqot maqsadi va vazifalarining mantiqiy izchilligi, kognitiv tilshunoslik hamda lingvomadaniyatshunoslik sohalaridagi zamonaviy nazariy-metodologik qarashlarga tayanilganligi, tahlilga tortilgan Xorazm bolalar folklori matnlarining va leksik materiallarning asosli tanlab olinganligi, antropotsentrik paradigmaga xos ilmiy-tahliliy usullardan unumli foydalanilganligi, chiqarilgan nazariy xulosa hamda amaliy takliflarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiyada tahlil qilingan Xorazm bolalar folklori leksikasi, undagi kognitiv strukturalar hamda lingvomadaniy birliklarni aniqlash va tasniflash usuli boshqa hududiy folklor matnlari leksikasini hamda etnomadaniy xususiyatlarini o‘rganishda nazariy ahamiyatga ega. Dissertatsiya natijalaridan “Kognitiv tilshunoslik”, “Lingvomadaniyatshunoslik”, “Etnolingvistika”, “Lingvofolkloristika” hamda “O‘zbek dialektologiyasi” kabi maxsus kurslarni o‘qitishda; darsliklar, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, ilmiy risola va ilmiy-etnolingvistik lug‘atlar yaratishda foydalanish mumkin. Dissertatsiyada ilgari surilgan kognitiv-lingvomadaniy qarashlar hamda xulosalar o‘zbek etnolingvistikasi va antropotsentrik tilshunosligini nazariy jihatdan boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xorazm bolalar folklori leksikasining kognitiv-lingvomadaniy xususiyatlarini tadqiq etish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

Xorazm bolalar folklori leksikasining antropotsentrik xususiyatlari, xalq og‘zaki ijodi namunalarida inson omilining til birliklari orqali ifodalanishi, marosimlar va bolalar folkloriga oid leksik qatlamlarning shakllanishidagi

lingvistik hamda ekstralingvistik omillar bo‘yicha olingan ilmiy xulosa va mulohazalardan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2024-2025-yillarda amalga oshirilgan “Qoraqalpoq xalq marosim folklori (genezisi, janr xususiyatlari, poetikasi)” mavzusidagi fundamental ilmiy loyihada foydalanilgan (Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2026-yil 6-maydagi 196/1-son ma’lumotnomasi). Natijada marosim hamda bolalar folklori matnlarida qo‘llanuvchi so‘zlarning leksik-semantik, qiyosiy-etnolingvistik jihatlarini hamda xalq tafakkurini ochib berishdagi o‘rnini tadqiq etish imkoni yaratilgan va loyiha materiallari yangi ilmiy ma’lumotlar bilan boyitilgan;

Xorazm bolalar folklori leksikasining antropotsentrik talqini, bolalar qo‘shiqlari, o‘yin matnlari va topishmoqlardagi lisoniy birliklarning o‘ziga xos xususiyatlariga doir ilmiy-nazariy xulosalardan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida 2023-2025-yillarda bajarilgan IL-27-4722022413-sonli “Qiyosiy adabiyotshunoslik” fanining “Komparativistika” elektron platformasini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2026-yil 12-fevraldagi 11-25/77-son ma’lumotnomasi). Natijada elektron platformaning ilmiy-metodik manbalar bazasi va illyustrativ materiallari boyitilgan;

bolalar folklorini targ‘ib qilish, milliy qadriyatlarni ommalashtirish hamda yosh avlodning nutq madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish jarayonida dissertatsiyada tahlil qilingan lingvistik vositalar hamda ushbu janrlarga xos nodir leksik qatlamga oid materiallardan Xorazm viloyati Madaniyat boshqarmasi tizimidagi madaniy-ma’rifiy muassasalar faoliyatida foydalanilgan (Xorazm viloyati Madaniyat boshqarmasining 2026-yil 19-fevraldagi 208-son ma’lumotnomasi). Natijada folklor dasturlari hamda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar ssenariylari takomillashtirilib, unutilib borayotgan hududiy lisoniy birliklarni arxivlashtirish imkoni yaratilgan;

dissertatsiyada o‘rganilgan leksik birliklarning kognitiv va lingvomadaniy tahliliga oid ilmiy natijalardan Mahmud Zamaxshariy nomidagi Xorazm viloyati axborot-kutubxona markazi faoliyati doirasida “Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash” milliy dasturi ijrosini ta’minlash jarayonida foydalanilgan (Mahmud Zamaxshariy nomidagi Xorazm viloyati axborot-kutubxona markazining 2026-yil 17-fevraldagi 01-25-son ma’lumotnomasi). Natijada kutubxonaning o‘lkashunoslik fondi va metodik manbalar bazasi mahalliy sheva hamda folklor faktlari bilan tizimlashtirilgan holda boyitilgan;

hududiy bolalar folklori namunalarining leksik tarkibi, undagi ko‘hna va “noyob” so‘zlar, maishiy leksika hamda mifologik tasavvurlar bilan bog‘liq ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining Xorazm viloyati teleradiokanali tomonidan tayyorlangan “Assalom Xorazm” musiqiy dam olish dasturi ssenariysini ishlab chiqishda foydalanilgan (Xorazm viloyati teleradiokanalining 2025-yil 5-dekabrdagi 985-son ma’lumotnomasi). Natijada teletomoshabinlarga taqdim etilgan efir materialining ilmiy-ma’rifiy mazmuni va ommaboplik darajasi mukammallashgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta (6 ta respublika hamda 2 ta xalqaro jurnalda) maqola e’lon qilingan. Shuningdek, Xorazm bolalar folklori materiallarini o‘z ichiga olgan “Xorazm xazinasi” nomli kitob chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 152 sahifani tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, mavzuning respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot ishining birinchi bobi “**Xorazm bolalar folklori leksikasini antropotsentrik o‘rganishning nazariy asoslari”** deb nomlanib, ikki fasldan iborat. Bobning 1-faslida ***“Bolalar folklori leksikasini o‘rganishning nazariy asoslari”*** yoritilgan. Xalq og‘zaki ijodiyoti tizimida bolalar folklori namunalari o‘zining rang-barang badiiy bo‘yoqlari, estetik jozibasi hamda o‘ynoqilik xarakteri bilan yaqqol ajralib turadi.

Bolalar folklori bilan bog‘liq dastlabki tarixiy ma’lumotlar “Devonu lug‘otit-turk” asarida keltiriladi[20]. XX asrning oxirlarida bir qator rus sharqshunoslari ham o‘zbek bolalar folklorini o‘rganish yo‘nalishida salmoqli izlanishlarni boshlab berdilar[21]. O‘tgan asrning 20-yillarida G.S.Vinogradov[22] tomonidan fanga kiritilgan “bolalar folklori” terminologik birligi XX asrning 60-yillariga kelibgina milliy tadqiqotchilarimiz ishlaridan keng o‘rin oldi. Mahalliy materiallarni to‘plash va tizimlashtirishning ibtidosida tilshunos va folklorshunos G‘ozi Olim Yunusovning “Alla to‘g‘risida bir-ikki og‘iz so‘z” nomli kichik, ammo konseptual maqolasi[23] boshlang‘ich manba vazifasini o‘tadi. XX asrning 60-yillari ikkinchi yarmiga kelib, bolalar og‘zaki ijodini monografik planda o‘rganish

[20] Маҳмуд Кошғарий. Девону луғатит турк. 3 жилд. – Тошкент: Фан, 1963. – Б. 376.

[21]Наливкин В.П., Наливкина М. Очерк быта женщины оседлого населения Ферганы. – Казань, 1888; Будзинский Н. Народная поэзия Ташкентских сартов. Средняя Азия, 1910, кн. IX-X; Боровков А.К. Игры узбекских детей // Сборник научного кружка при Востфаке САГУ. Вып. 1. – Ташкент, 1928; Пещерова Е.М. Некоторые игры среди оседлого населения Туркестана // Бюллетень САГУ. Вып. II. – Ташкент, 1925. ва бошқалар.

[22] Виноградов, Г. С. Детский фольклор и быт: Программа наблюдений / Г. С. Виноградов. – Иркутск: Изд. Иркут. секции ВСОРГО, 1925. – С. 84.

[23] Юнусов Ғ.Ў. “Алла тўғрисида бир-икки оғиз сўз” // Маориф ва ўқитғучи. – Тошкент, 1926. – № 6. – Б. 25-26.

harakati yangi sifat bosqichiga ko‘tarildi. Mazkur yo‘nalishda o‘zbek bolalar folklorining janriy tabiati va qiyofasini atroflicha umumlashtirgan ilk fundamental tadqiqot ishi sifatida G‘.Jahongirovning nomzodlik dissertatsiyasi maydonga chiqdi[24]. XXI asr boshlarida ham mazkur yo‘nalish to‘xtab qolgani yo‘q, aksincha, S.Avezov[25], N.Safarova[26] va Sh.Turg‘unov[27]larning izlanishlarida bolalar o‘yin folklori, xususan, kichkintoylar aytimlari va sanamalar tabiati yangicha metodologik mezonlar asosida tadqiq etildi. Miqdoran kam bo‘lsa-da, lingvofolkloristika yo‘nalishi va folklor janrlari tili mahalliy tilshunos olimlarning diqqat markazida bo‘lib kelgan hamda bu borada muayyan tajriba-sinov tadqiqotlari olib borilgan. Sh.Shoabdurahmonov[28], A.Ishayev[29], R.Rasulov[30], S.Tursunov[31], X.Doniyorovlar[32], asosan, folklorning epik janrlari tilini tadqiq qildilar. Xalq og‘zaki ijodining paremiologik qatlamini tadqiq etishda X.Abdurahmonov[33] bilan bir qatorda M.Sadriddinova[34], B.Soatov[35] va B.Jo‘rayeva[36]larning ham izlanishlari soha poydevorini mustahkamlashga xizmat qildi. Topishmoq janrining tilshunoslik predmeti o‘laroq tizimli tadqiq etilishi va rivojida T.Akromov[37], S.Mo‘minov[38], M.Saitboyeva[39], J.Abdullayev[40] hamda M.Saparniyozova[41] kabi tilshunoslarning struktur-funksional yo‘nalishdagi izlanishlari muhim poydevor bo‘ldi. R.Anorboyev, F.Hayitova, M.Jumaniyozova

---

[24] Джахангиров Г.А. Узбекский детский фольклор: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –Ташкент, 1972; Shu muallif: Ўзбек болалар фольклори. –Тошкент: “Ўқитувчи”, 1975; Яна ўша: Болалар эртаклари. –Тошкент: “Ёш гвардия”, 1978; Минг бир бола ўйини. –Тошкент: Ёш гвардия, 1978.

[25] Авезов С. Санама жанри табиати ва бадийяти. – Тошкент: Фан, 2008. – 104 б.

[26] Сафарова Н. Ўзбек болалар ўйин фольклори табиати ва бадийяти. – Тошкент, 2006. – 51 б.

[27]Турғунов Ш. Санамаларнинг айрим хусусиятларига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – № 6. – Б. 85-87.

[28] Шоабдурахмонов Ш. О художественных средствах языка поэмы “Равшан”:Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1949.

[29] Ишаев А. Достонлар тилининг баъзи бир хусусиятлари // Эргаш шоир ва унинг достончиликдаги ўрни. – Тошкент: Фан, 1971.

[30] Расулов Р. Синтаксические связи между словами в дастане “Алпамыш”:Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1975.

[31] Турсунов С. Лексические особенности дастана “Алпамыш”:Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1990.

[32] Донияров Х. Опыт изучения джекающих (кипчакских) диалектов в сравнении с узбекским литературным языком. – Ташкент: Фан, 1975.

[33] Абдураҳмонов Х. Синтаксические особенности узбекских народных пословиц: Автореф. дисс. ... канд. филол.наук. – Ташкент, 1964. – С.33

[34] Садриддинова М. Лексика узбекских пословиц и поговорок: Автореф. дисс. …канд. филол. наук. – Ташкент, 1985. – С. 20.

[35] Соатов Б. Жанровая специфика и поэтические особенности узбекских народных пословиц: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1990. – С.20.

[36] Жўраева Б. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2002. – Б.23.

[37] Акрамов Т. Топишмоқларнинг баъзи синтактик хусусиятлари // Ўзбек тилининг лексик-семантик хусусиятлари. – Тошкент, 1976. – Б. 86-89.

[38] Мўминов С. Ўзбек топишмоқларининг номинатив аспекти // Республика ёш филолог олимларининг анъанавий илмий конференцияси материаллари. – Тошкент: Фан, 1990, 103 б.

[39] Саитбова М. Именное сказуемое в узбекских народных загадках:Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1984.

[40] Абдуллаев Ж. Ўзбек халқ топишмоқларининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. номзоди дисс. автореф. – Тошкент, 1994.

[41] Сапарниязова М. Ўзбек халқ топишмоқларининг синтактик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. номзоди дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – Б.24.

va M.Yakubbekova[42] singari tadqiqotchilar o‘z ilmiy ishlarida folklor qo‘shiqlarining leksik-semantik, struktur-sintaktik hamda lingvopoetik o‘ziga xosliklarini ochib berishga muvaffaq bo‘lganlar. N.X.Dosanov, S.Isroilova, Sh.N.Rahmatullayev, H.Bozorovlar[43] ertak janrini tilshunoslik masalalarining tadqiqot obyekti sifatida tanlab, izlanishlar olib bordilar.

Ushbu bobning navbatdagi faslida ***“Xorazm bolalar folklori leksikasi tadqiqida antropotsentrik yondashuvning ahamiyati”*** xususida fikr yuritiladi. XX asrga kelib, til va inson o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikka e’tibor kuchaydi. Natijada, XX asr oxirlarida tilshunoslikda tilni inson omili bilan bog‘liq holda o‘rganuvchi antropotsentrik paradigma shakllandi.

Antropotsentrik yondashuvda til va tafakkur munosabatiga alohida e’tibor qaratiladi. Til faqatgina aloqa vositasi emas, balki insonning tafakkuri, bilish faoliyati, madaniyati va ruhiy dunyosi bilan uzviy bog‘liq hodisa sifatida talqin qilinadi. Tilshunoslikdagi ana shu nazariy yondashuvlar va inson omilining hududiy-etnomadaniy muhitdagi namoyon bo‘lishini Xorazm vohasi misolida ham yaqqol ko‘rish mumkin. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridan e’tiboran rus sharqshunosligi hamda arxeologiya maktablarida Xorazm ilmiy muhiti, madaniy merosi va tarixiy ildizlarini fundamental o‘rganishga bo‘lgan intilish sezilarli darajada kuchaydi. Bu borada N.A.Aristov, S.P.Tolstov, M.Sazonova, A.Freyman va E.D.Polivanov kabi yirik olimlarning izlanishlari voha xalqining o‘ziga xosligini ilmiy asoslashda dastlabki muhim poydevor vazifasini o‘tadi. Vohadagi jonli og‘zaki nutq namunalarini to‘plashda H.Vamberi va A.N.Samoylovichlarning xizmatlari alohida tahsinga loyiq.

XXI asr boshlarida Xorazm bolalar folklori leksikasi alohida tadqiqot obyektiga aylandi. Bu borada S.Ro‘zimboyev, T.Qilichev, N.Quronboyevalarning voha xalq og‘zaki ijodi an’analarini to‘plash, ro‘yxatga olish va bir tizimga keltirishga oid fundamental ishlari[44] fanga yangi ma’lumotlarni taqdim etdi. 2005-yilda H.Ro‘zmetov Xorazm bolalar folklorini folklorshunoslik jihatdan monografik tadqiq qildi[45].

Xorazm bolalar folklori leksikasi bilan bog‘liq jarayonlarni antropotsentrik tilshunoslik doirasida, ya’ni lisoniy birliklarni inson omili bilan uzviy bog‘liqlikda tadqiq etish zamonaviy tilshunoslik paradigmasining yetakchi yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xorazm bolalar folklori so‘z boyligining o‘ziga xosligi va uning

---

[42] Анорбоев Р. Ўзбек халқ қўшиқларидаги шахссиз гапларнинг баъзи структура хусусиятлари // ТошДПИ илмий асарлари. – Тошкент, 1972. – Б.182-191; Ҳайитова Ф. Никоҳ тўйи қўшиқларининг лисоний талқини: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – Б.24; Жуманиёзова М. Хоразм халқ қўшиқлари лексикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – Б.24; Якуббекова М. Ўзбек халқ қўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – Б.50.

[43] Досанов Н.Х. Ўзбек халқ эртаклари тилида аниқловчилар: Филол.фан. номз. дисс. – Тошкент, 1994. – Б. 141; Исраилова С. Замонавий тилшуносликда халқ эртакларини ўрганишнинг лингвокультурологик хусусиятлари. // Сўз санъати. – Тошкент, 2020. № 5. – Б. 232; Rahmatullayev Sh. O‘zbek xalq ertaklari tilidagi antroponimlarning lingvokultrologik tadqiqi:Filol.fan.fals.dok. diss. – Buxoro, 2022. – B. 155; Bozorov H. O‘zbek xalq ertaklarining lingvomadaniy tadqiqi: Filol.fan.b.fals.dok. ...diss. – Termiz, 2023. – B. 164.

[44] Рўзимбоев С. Хоразм воҳаси ўзбек халқ қўшиқларининг ғоявий-бадиий хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1971; Қиличев Т. Хоразм халқ театри. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988; Қуронбоева Н. Хоразм тўй қўшиқлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998.

[45] Рўзметов Ҳ. Хоразм болалар фольклори: локал хусусиятлари, таснифи ва бадийяти: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2005. – Б. 158

bolalar tasavvuridagi dunyo manzarasini qanday aks ettirishi, eng avvalo, bu hududning geografik o‘rni va mahalliy shevasi bilan uzviy bog‘liqdir.

Antropotsentrik tilshunoslik nuqtayi nazaridan qaralganda, Xorazm bolalar folklori leksikasida oilaviy va maishiy munosabatlar, shuningdek, qarindoshlik tizimini ifodalovchi hududiy birliklar faol qo‘llanadi. Masalan, umummilliy folklor matnlarida uchraydigan *“buvi”, “opa”, “tog‘a”* so‘zlari o‘rniga voha bolalar aytimlarida *“ana”, “apka”, “doyi”* kabi shevaga xos murojaat birliklari ishlatiladi. Bu esa hududiy nutq qatlamining muloqot odobi hamda madaniy-ijtimoiy tasavvurlar shakllanishidagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Matnlarda uchraydigan va voha sheva xususiyatlarini o‘zida aks ettirgan *gechchi (echki), pishik (mushuk), o‘kiz (ho‘kiz), o‘jak (buzoq)*[46] kabi zoonimlar bolaning atrof-muhitdagi jonli tabiatni tasniflashiga zamin yaratadi. Bolalar folklor namunalarida qo‘llaniladigan *go‘mma, barak, kurdik, qorma*[47] kabi ovqat nomlari bolaning ijtimoiy-madaniy makonni anglashida o‘ta muhim lingvistik vositadir. Shuningdek, bolalar folklor namunalarida faol qo‘llanuvchi *g‘altak, bodyo, yorg‘i, g‘oli*[48] singari maishiy-ro‘zg‘or terminlari lisoniy shaxsni yanada hududga va shu hudud mansub bo‘lgan dialektal leksikaga bog‘liq holda ulg‘aytiradi.

Xorazm hududiy bolalar folklori leksik tizimlashuvini o‘rganishda nutqiy birliklar va ular faoliyat ko‘rsatadigan lisoniy-etnografik makonni yaxlitlikda tahlil qilish dolzarb nazariy ahamiyatga ega.

Tadqiqot ishining II bobi “**Xorazm bolalar folklori leksikasida “inson” konseptining verballashuvi”** deb nomlanib, bobning ilk fasli ***“Bolalar folklori matnlarida Inson obrazini ifodalovchi leksik birliklar”*** tahliliga bag‘ishlanadi.

Xorazm bolalar folklori namunalarida inson obrazi rang-barang leksik birliklar tizimi vositasida shakllangan bo‘lib, ular voha ahlining bola tarbiyasiga bo‘lgan yondashuvlarini, estetik ideallari va mental tasavvurlarini yaqqol aks ettiradi. Mazkur lisoniy birliklarni zamonaviy paradigmalar, xususan, “inson” konsepti prizmasida tadqiq etish folklor tilining ichki semantik va kognitiv imkoniyatlarini to‘laqonli ochishga xizmat qiladi.

To‘plangan lisoniy dalillar hamda hududiy folklor namunalarining semantik tabiati inson obrazini yaratuvchi so‘zlarni uchta mikrotizimga ajratib o‘rganishga asos beradi. Bular: qarindoshlik terminlari, somatik (tana a’zolari) leksika hamda yosh va jins xususiyatlarini bildiruvchi leksik qatlamdir.

Xorazm bolalar folklori so‘z boyligida “inson” konseptining eng barqaror konseptual markazini, avvalo, qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi nominativ birliklar tashkil etadi. Voha folklori namunalarida umumiylik kasb etgan *ota* leksik birligi bilan bir qatorda, voha lahjasiga xos *oto*, *aka* kabi hududiy fonetik hamda leksik variantlar keng qo‘llaniladi. Xorazm vohasida dialektal xarakterdagi *ana (ena)* va *opo* kabi subyektiv-emotsional bo‘yoqdorlikka ega leksemalar yetakchilik qiladi; xususan, bolalar jonli nutqida *opo* leksemasi faolroq qo‘llanilsa, *ana (ena)* birligi ko‘proq “buvi” tushunchasini ifodalashga xizmat qiladi.

Buvosi toy mindirsin,

---

[46] Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1961. – 348 б

[47] Абдуллаев Ф. Ko‘rsatilgan manba.

[48] Абдуллаев Ф. Ko‘rsatilgan manba.

Momosi guppi kiydirsin,
Og‘ojoni boy bo‘lsin,
Oyoposi oy bo‘lsin,
Shu bolamni qo‘rchilab,
Iyartirib yursinlar[49].

Ushbu parchada *buvo*, *momo*, *og‘o* va *oyopo* kabi qarindoshlik birliklari yaxlit bir tizimni hosil qilgan. Bu yerda ham inson obrazining oilaviy rollarga bo‘linishi sheva leksikasi vositasida aniq ko‘rsatilgan. Xususan, katta avlod vakillari hisoblangan buva va momo leksemalari g‘amxo‘rlik hamda moddiy ta’minot (toy mindirish, guppi kiydirish) vazifasida kelsa, Xorazm shevalariga xos *og‘ojoni* (akasi) va *oyoposi* (opasi) birliklari bolani ijtimoiylashtirish rolini bajaradi. Shuningdek, *ana*, *buvo, og‘o, apka, doyi* kabi qarindoshlik leksemalarining bola ongida inson obrazining verballashuvida nihoyatda ahamiyati katta.

Go‘dak dunyoni anglar ekan, uning diqqat markazida insonning tashqi qiyofasi, ya’ni tana a’zolari bilan bog‘liq bo‘lgan semantik qatlam ham muhim o‘rin egallaydi. Bolalar folklori matnlarida inson tana a’zolarining ijobiy belgi sifatida qo‘llanilishi faol kuzatiladi.

Bolomni qora go‘zi,
Qand-u novotdir so‘zi
Ish buyursa anasi,
Xizmata tayyor o‘zi!
Xonim, xonim gal xonim! [50]

Matnda insonning ko‘rish a’zosini ifodalovchi *go‘z* (ko‘z) somatik leksemasi qo‘llanilgan. Bola nutqiy muhitida *qora go‘z* birikmasi shunchaki jismoniy a’zo bo‘lmay, bolaning shirin va suyukli ekanini ko‘rsatuvchi vizual-estetik belgi hisoblanadi.

Bola atrofidagi insonlarni idrok etar ekan, ularning yoshi va jinsi bilan bog‘liq farqlarni o‘z nutqida faol aks ettiradi. Shu bois inson siymosini lisoniy modellashtirishda yosh va jins leksikasi alohida mikrotizimni tashkil etadi.

Bak-bavak, dur bavak,
Onasining joni bavak,
Otasining moli bavak[51].

Misralarda chaqaloqning ota-ona hayotidagi o‘rni *jon* va *mol* (boylik) tushunchalariga bog‘lanib, uning xonadon uchun eng qadrli ne’mat ekanligi lisoniy ifodalangan. Keltirilgan mazkur asosiy mikrotizimlar bolalar dunyoqarashidagi inson omilini shunchaki jismoniy-biologik tushuncha sifatida emas, balki yaxlit mental tuzilma holatida gavdalantirishga xizmat qiladi.

Bobning ikkinchi fasli ***“Xorazm bolalar folklori leksikasida antropomorf tasavvurlar”*** deb nomlanib, unda dastlab tabiat hodisalari va osmon jismlarining insonlashtirilishi bilan bog‘liq leksik sath tadqiq etilsa, keyingi bosqichda

[49] Dala yozuvlari. Xorazm viloyati, Yangibozor tumani. – 2024-yil.
[50] Sobir E., Mahmudov R., Azatova G., Yusupova S. Xorazm xazinasi. Xalq aytimlari (1-kitob). – Xiva, 2024. – B. 13.
[51] Қуронбоева Н. Хоразм тўй қўшиқлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – Б. 6.

an’anaviy mifologik obrazlar leksikasidagi antropomorfizm tabiati ochib beriladi. Shuningdek, hayvonot va o‘simliklar olami birliklariga insoniy sifatlarning ko‘chirilishi hamda kundalik ro‘zg‘or ashyolari, predmetlar qiyofasining antropomorfik tasvirlanishi alohida mikrotizimlar sifatida tahlilga tortiladi.

Xorazm bolalar folklori diskursida kosmik munosabatlar va tabiat komponentlarining antropomorfik talqini o‘ziga xos tizimni tashkil etadi.

Qish galsa quyosh og‘ar,
Qor yog‘ar, yog‘ish yog‘ar,
Ulli bo‘lsa shu qizim,
Po‘stin giyip sut sog‘ar![52]

Lisoniy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, matnda tabiat va inson o‘rtasidagi parallelizm antropomorfik tushunchalar asosiga qurilgan. Tabiiy sikllar shunchaki iqlimiy o‘zgarishlar emas, balki qiz bolaning ulg‘ayish jarayonini harakatga keltiruvchi lisoniy fon vazifasini bajaradi.

Xorazm bolalar folklori tizimida mifik qatlamga oid personajlar va g‘ayritabiiy kuchlar lisoniy jihatdan o‘ziga xos tarzda modellashtiriladi.

Qum ichinda
Qolg‘on tayoq.
Jin-arvohlo,
Urg‘on tayoq[53].

Xorazm bolalar folklor namunalarida *jin, arvoh, dev, pari, devona, yalmog‘iz* kabi mavhum obrazlarning ongli subyekt qiyofasida faollashtirilishi matnning lisoniy jozibasini oshiradi va xalq tafakkuridagi qadimgi mifologik elementlar barqarorligini ko‘rsatadi.

Bolalarni turli tashqi va g‘ayritabiiy xavflardan asrashga qaratilgan an’anaviy odatlar tizimida o‘simliklar dunyosini shaxslantirish (fitoantropomorfizm) hodisasi yetakchi o‘rin tutadi. O‘simliklar dunyosini jonlantirish hodisasiga uchragan o‘rinlarni tahlil qilish jarayonida shunga amin bo‘ldikki, *isvant, bug‘doy, gul* leksemalari namunalarda ko‘plab uchraydi. Ular bola ongida inson obrazining verballashuv jarayonida faol hisoblanadi.

Isvant dagan sanmisan,
Har dardimga ammisan.
Ko‘rolmaganni ko‘zi chiqsin,
Ko‘tara olmaganni beli sinsin[54].

Lisoniy sathda *isvant* (isiriq) oddiy flora vakili emas, balki bevosita muloqotga kirishuvchi (*sanmisan*) hamda xastaliklarni daf qiluvchi malham (*ammisan*) sifatida jonlantiriladi. Bola tevaragidagi salbiy energiyani jismonan va ruhan tozalashda o‘simlikning tutuni vositasidan foydalanilishi uning antropomorfik hamda himoyachilik tabiatini belgilab beradi

Shuningdek, bolalarda atrof-muhitni anglash va kognitiv dunyoni boyitishda zoomorfik antromorfizm ham yetakchi o‘rin tutadi. Xususan, Xorazm bolalar

[52] Sobir E., Mahmudov R., Azatova G., Yusupova S. Xorazm xazinasi. Xalq aytimlari (1-kitob). – Xiva, 2024. – B. 18.
[53] Ko‘rsatilgan manba. – B. 59.
[54] Dala yozuvlari. Xorazm viloyati, Shovot tumani. – 2023-yil.

folklori tizimida *ho‘kiz, to‘rg‘ay, secha, ot, quyon, kapalak, tulki* kabi leksemalar faol qo‘llanadi. Sabzi o‘simligining xususiyatlarini yashirish va uni bolalar o‘yiniga tatbiq etishga qaratilgan quyidagi aytim misolida buni kuzatish mumkin:*Sori tulki-xon buyruq,*

In og‘zinda go‘k quyruq!?
– Gashir bildim!
Ol, sug‘rildim![55]

Tahlil etilayotgan lirik namunada sabzi (*gashir*)ning tashqi ko‘rinishi va yer ostidagi holati yovvoyi jonivor – tulki qiyofasiga ko‘chiriladi. Ushbu tasnifda o‘simlik dunyosi vakili faol muloqot tizimiga jalb qilinib, o‘z uyasiga yashiringan hamda tashqi olam bilan aloqaga kirishuvchi jonli subyekt sifatida harakatga keltiriladi.

Bolalar folklori matnlarida moddiy madaniyat elementlari, kiyim-kechak hamda turmush buyumlari shunchaki maishiy detall bo‘lib qolmay, bolaning ijtimoiy kelajagini bashorat qiluvchi antropomorfik vositaga aylanadi. Voha bolalar folklorida qo‘llaniladigan *sirg‘a, bilaguzuk, telpak, kosa, uzuk, sandiq, tugma* kabi predmetlar nafaqat bolaning tevarak-atrof haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi, balki inson obrazining verballashuvida muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, ushbu faslda tadqiq etilgan antropomorf tasavvurlar Xorazm bolalar folklorida inson konseptini tilda verballashtirishning o‘ziga xos usuli hisoblanadi. Mazkur leksik birliklarning insoniy xususiyatlar bilan sintezlashuvi jonsiz borliqni shaxslantirish orqali xalq og‘zaki ijodida inson qiyofasini lingvistik jihatdan ifodalash imkonini beradi.

Bobning uchinchi fasli ***“Bolalar folklorida insonning ruhiy va emotsional holatini ifodalovchi leksika”*** tahliliga bag‘ishlanadi. Tadqiqot doirasida emotsional holat leksikasi bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan tizimli qatlamlar asosida o‘rganiladi. Bunda dastlab matnlarda quvonch, shodlik va mehr-muhabbat tuyg‘ularini shakllantiruvchi ko‘tarinki emotsional holat leksikasi tahlilga tortilsa, keyingi bosqichda araz, norozilik, xafagarchilik va og‘riqni ifodalovchi salbiy ruhiy holat hamda xavotir leksikasi tadqiq etiladi. Shuningdek, dinamik faollik va jo‘shqin o‘yin-kulgi leksikasi alohida guruh sifatida o‘rganilib, yakunda buzilgan ruhiy muvozanatni tiklashga va bolani tinchlantirishga xizmat qiluvchi ovutish hamda ruhiy barqarorlik leksikasining lisoniy tabiati yoritiladi.

Ko‘tarinki holat leksikasi doirasida, asosan, *osmondag‘i oy, mozoli, oylonoyin, ko‘ngil shodi, qora go‘zzim* kabi birliklar ko‘p uchraydi. Shuningdek, Ramazon va suyunchi aytish jarayonida ham turli his-hayajon so‘zlari asosiy lisoniy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Urraa, yetdik ramazona,
Aytib galdik sizla yono
Qalbingiz do‘lsin iymono,
Shod yurgaysiz mudomo[56].

[55] Sobir E., Mahmudov R., Azatova G., Yusupova S. Xorazm xazinasi. Xalq aytimlari (1-kitob). – Xiva, 2024. – B. 36.
[56] Dala yozuvlari. Xorazm viloyati, Shovot tumani. – 2023-yil.

Matnda qo‘llangan *“urraa”* undov so‘zi hamda *“yetdik”* fe’li bolalarning g‘oyatda baxtiyor ekanliklarini ko‘rsatuvchi eng faol ekspressiv vositadir. Bolalarning uydan uyga yurib ramazon aytishi bilan bog‘liq harakat emotsiyasi *“aytib galdik”* birikmasida o‘z ifodasini topadi. Parchadagi pozitiv emotsional holat xonadon egalariga qaratilgan ruhiy-ma’naviy duolar tizimi orqali rivojlantiriladi. Bolalar folklorida salbiy axloqiy sifatlarni hajviy usulda tanqid qilish orqali xulq-atvorni tuzatishga intilish kuchli aks etadi. Xorazm bolalar folkloriga xos bo‘lgan “Qizg‘onch” deb nomlanuvchi quyidagi qiziqmachoq matnida ushbu didaktik maqsad yorqin ifodalangan:

Borma shuni qoshina,
Qizg‘onadi oshini.
Qo‘shib ichar oshina,
Go‘zdan oqqan yoshini[57].

Ushbu qiziqmachoq matni bolalardagi baxillik va xudbinlik kabi nuqsonlarni, shuningdek, tozalikka rioya qilmaslik kabi yaramas odatlarni qoralashga xizmat qiladi.

Inson konseptining ruhiy va emotsional holatlar tizimida ichki jo‘shqinlik, jismoniy faollik kabi dinamik-aktiv holatlar ham muhim o‘rin tutadi. Folklor namunalari tarkibidagi faollik semantikasini tashiydigan lisoniy birliklar bolani jismoniy va nutqiy harakatga undash, undagi emotsional turg‘unlikni bartaraf etish funksiyasini bajaradi.

Sori qovun pishibdi,
Sapog‘innan tushibdi,
“Qovun-qovun” o‘yini
Ko‘nglimiza tushibdi.
Gal-xo, gal,
O‘yina gal...[58]

Tahlil etilayotgan lirik namunaning semantik qurilishi bolalarning o‘yin jarayonidagi harakatga chanqoqligi va zavqli ruhiy holatini dinamik leksika vositasida ifodalashga xizmat qiladi. Matndagi dastlabki lisoniy zanjir tabiat hodisalari va amaliy harakat motivlarining bog‘liqligi asosiga qurilgan. *“Sori qovun pishibdi”*, *“sapog‘innan tushibdi”* misralari o‘yin boshlanishi uchun o‘ziga xos lisoniy turtki vazifasini o‘taydi. Bu o‘rinda qovunning pishishi va bandidan uzilishi tabiatdagi tabiiy dinamik o‘zgarish bo‘lsa, u bolalar ruhiyatida ham harakatga bo‘lgan jo‘shqin intilishni yuzaga chiqaradi.

Folklor namunalarida qo‘llaniladigan *galxo-gal, zirlo, qumul, yugur, bor get* kabi birliklar bolaning jismoniy harakatlarini shunchaki tasvirlamaydi, balki ularni ichki ruhiy kechinmalar orqali boshqaruvchi lisoniy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Sho‘xlik va jismoniy toliqqanlikdan so‘ng bolaning asab tizimini tinchlantirish, unda xavfsizlik va sokinlik hissini uyg‘otish ehtiyoji tug‘iladi. Aynan shu nuqtada bolalar folklori leksikasining yana bir muhim qatlami – ruhiy

---

[57] Хоразм хазинаси. Тўплаб, нашрга тайёрловчи: Собир Эҳсон Турк. –Урганч. 1986. – Б. 39.
[58] Qarang: Рўзметов Ҳ. Хоразм болалар фольклори: локал хусусиятлари, таснифи ва бадиияти: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2005. – Б. 91.; ЗЎФА. инв. № 1636. – Б. 296.

barqarorlikni tiklash, ovutish va taskin berishga xizmat qiluvchi sokin lirik janrlar, xususan, alla va yupatish aytimlari yetakchi o‘rin egallaydi. Bolani uxlash jarayonida ovutish va unga ruhiy muvozanat berishda quyidagi an’anaviy lirik namuna ushbu mikrotizimning funksional imkoniyatlarini yaqqol ko‘rsatib beradi:

Oylonayin oq buvak,
Sutdan do‘yib yot buvak,
Ota-enang qarrisa
Ovqat pishir, boq buvak![59]

She’rdagi erkalash mazmuniga ega ***“oylonayin”*** (aylanayin) dialektal leksemasi bolaga nisbatan cheksiz mehr-muhabbat va tasalli berish tuyg‘usining lisoniy ifodasidir. ***“Sutdan do‘yib yot buvak”*** misrasi esa boladagi to‘qlik, osoyishtalik va, eng asosiysi, xavfsizlik (himoyalanganlik) hissini verballashtiradi.

